
Navbatdagi profilaktika kuni o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan har haftaning payshanba kunlari respublika hududida "Profilaktika kuni" deb belgilandi. Mazkur topshiriqni bajarish yuzasidan O'zbekistonning barcha shahar va tumanlar qatori Rishton tumanida ham huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda. Bugun tuman IIBda o'tkazilgan tadbirda tuman hokimi va sektor rahbarlari ishtirok etib, turli xil noxush holatlar, jinoyatlar, qoidabuzarliklarga qarshi kurash, ularning oldini olish borasida mas'uliyat bilan yondoshib barcha bir yoqqadan bosh chiqarib ishlash lozimligini ta'kidladi. Bugungi "Profilaktika kuni" tadbirida shuningdek tuman Ichki ishlar bo'limida soha xodimlari, profilaktika inspektorlari, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, yoshlar yetakchilari, mahallalardagi xotin-qizlar faollari ishtirokidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar muhokamasi ham bo'lib o'tdi.

2022-06-02 14:48:27